

O'zbekiston Respublikasida Iste'mol narxlari indeksi (INI)

2026-yil yanvar oyi

Ma'lumotlar jadvaliga havolalar:

MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha iste'mol narxlari indeksi

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha tovar va xizmatlar narxlari indeksi, o'tgan oyga nisbatan

- I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI
- II. Hududlar kesimida yig'ma INI
- III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI
- IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi
- V. Geometrik Yang formulasi bo'yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)
- VI. Uslubiy ma'lumotlar
- VII. Foydali havolalar


I. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yig'ma INI

2026-yil yanvar oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi **100,7 %**, yillik nisbatda **107,2 %**ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2025-yil yanvar oyida yig'ma INI oylik ko'rsatkichi 100,7 %, yillik nisbatda 109,9 % ni tashkil etgan.

Meva va sabzavot mahsulotlari narxlarining o'zgarishini hisobga olmaganda, oylik INI ko'rsatkichi **100,6 %** (2025-yil yanvar oyida **100,4 %**), yillik nisbatda **108,1 %** (2025-yil yanvar oyida **112,0 %**)ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da



Quyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha 2026-yilning yanvar oyida asosiy tovarlar va xizmatlar narxlarining o'zgarishlari keltirilgan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar bo'limi

Oy davomida asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan qo'y go'shti – **1,6 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **+27,2 %**)ga, suyaksiz mol go'shti – **1,1 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **+25,0 %**)ga, suyakli mol go'shti – **1,0 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **+23,8 %**)ga, parranda go'shti – **1,4–1,5 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **+5,3 %** dan **+5,8 %** gacha)ga, xom sut – o'rtacha **1,0 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **+6,0 %**)ga, tuxum – **0,6 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **+0,3 %**)ga, o'simlik yog'i – o'rtacha **0,4 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **+12,8 %**)ga va shakarning **1,0 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **-3,7 %**)ga narxlari o'rtacha o'sishi qayd etildi.



Ma'lumot uchun: 2026-yil yanvar oyida narxlarning o'zgarishi ham import, ham mahalliy mol go'shtiga nisbatan qayd etildi. Respublika bo'yicha mol go'shtning 1 kilogrammi o'rtacha narxi 500-1000 so'm oralig'ida oshdi.

Oy davomida asosan guruch – 1,1 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan -16,7 %)ga, oq qand – 0,4 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan -2,3 %)ga pasayishi kuzatildi.

Asosiy meva-sabzavot mahsulotlaridan bulg'or qalampiri – 18,5 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan -11,0 %)ga, banan – 6,3 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan -4,1 %)ga, limon – 4,9 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +90,8 %)ga, karam – 3,8 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +27,9 %)ga, kartoshka – 1,9 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan -15,9 %)ga, sabzi – 1,8 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +9,5 %)ga, piyoz – 1,2 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan -1,9 %)ga narxlari sezilarli oshdi. Mandarin – 2,4 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +19,3 %)ga, apelsin – 2,3 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +8,8 %)ga va pomidor narxlarining 2,1 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +1,6 %)ga sezilarli pasayishi kuzatildi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari bo'limi

2026-yil yanvar oyida narxlarning asosiy o'sishi ko'mirda (bozor narxlari bo'yicha) – 2,3 %ni va yog'och yoqilg'isida esa – 1,7 %ni tashkil etdi. Ushbu tovarlar joriy yilning yanvar oyidan boshlab kuzatuv uchun tanlanmaga kiritildi. Bundan tashqari, ayrim hududlarda maishiy chiqindilarni olib ketish, issiq suv va issiqlik ta'minoti tariflari oshirildi. Respublika bo'yicha maishiy chiqindilarni olib ketish narxlari o'rtacha – 0,2 %ga, issiqlik ta'minoti – 0,3 %ga, issiq suv ta'minoti – 0,9 % qimmatlashdi. Oy davomida turar joylarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun materiallar narxlarining o'sishi 0,5 %dan oshmadi.

Sog'liqni saqlash xizmatlari bo'limi

Sog'liqni saqlash sohasida oy davomida diagnostika vizualizatsiya xizmatlari 1,5 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan 9,4 %)ga, ambulator davolash va reabilitatsiya xizmatlari 1,0 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan 8,8 %)ga, davolovchi massaj xizmatlari 0,7 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan 5,3 %)ga, stomatologiya xizmatlari 0,7 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan 4,7 %)ga, statsionar davolash va reabilitatsiya xizmatlari 0,7 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan 6,7 %)ga, tibbiy laboratoriya xizmatlari 0,7 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan 9,0 %)ga qimmatlashdi.

Transport bo'limi

Oy davomida benzin uchun INI o'sishi 0,6 %ni tashkil qildi, shu jumladan, AI-92 – 0,6 %ga, AI-95 – 0,4 %ga, AI-98 va AI-100 – 0,3 %ga oshdi.

Propanning narxi oy davomida 8,9 % (2025-yil yanvariga nisbatan 12,3 %)ga oshib, 1 litrining yuqori narx chegarasi 8 500 so'mni tashkil etdi.

2026-yil yanvar oyida metan narxi sezilarli o'zgarmadi (+0,1 %), biroq 2025-yil boshiga nisbatan 30,2 %ga yuqori darajada saqlanib qoldi.

2026-yil yanvaridan boshlab haydovchilikka tayyorlash bo'yicha kurslar, haydovchilik darslari, imtihonlari va guvohnomasini olish narxlari o'rtacha 5,0 %ga qimmatlashdi. Bu nazariy va amaliy imtihonlarni topshirish qiymati oshgani hisobiga yuz berdi.

Oy davomida uzoq masofaga qatnaydigan poyezdlarda yo'lovchi tashish xizmatlarining narxi 0,5 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +8,6 %)ga, aviaqatnovlar esa o'rtacha 5,0 % (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +17,1 %)ga pasayishi qayd etildi. Bu narxlarning pasayishi milliy valyutaning mustahkamlanishi hamda ayrim kuzatilayotgan yo'nalishlardagi tariflarning o'zgarishi bilan bog'liq.

Axborot va aloqa bo'limi

2026-yil yanvar oyida mobil aloqa xizmatlari o'rtacha 2,4 %ga qimmatlashdi (2025-yil yanvar oyiga nisbatan +17,9 %). Shu bilan birga, striming xizmatlari (bir oyda -0,2 %),

messenjerlar va sun'iy intellekt xizmatlariga pullik obuna narxlarining pasayishi (bir oyda **-0,8 %**) qayd etildi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'limi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar narxlarida oy davomida sezilarli darajada o'zgarish kuzatilmadi. Faqatgina xususiy bolalar bog'chalari xizmatlarida – **0,2 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan **+4,2 %**)ga hamda til kurslari va repetitorlik xizmatlari – **0,3 %** (2025-yil yanvar oyiga nisbatan o'rtacha **+5,4 %**)ga narx oshishi kuzatildi.

Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar bo'limi

Uzoq muddatli barqarorlikdan so'ng, 2026-yil yanvar oyidan boshlab sug'urta xizmatlari narxlarining oshishi qayd etildi. Shaxsiy transport vositalarini sug'urta qilish xizmatlari uchun INI oy davomida respublika bo'yicha o'rtacha **381,8 %**ni tashkil etdi. Bunday o'sish hisobiga INI hisoblash uchun tovarlar va xizmatlar to'plamidagi salmoqni hisobga olgan holda, yig'ma INI bir oyda **0,11 f.d.**ga oshdi.

Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar bo'limi

Bo'limdagi tovarlar va xizmatlar uchun qisqa muddatli INI diapazoni **99,4 %** (ayollar uchun gigiyena vositalari)dan **107,0 %** (qimmatbaho metallardan yasalgan nikoh uzuklari)gachani tashkil etdi. Yillik INI bo'yicha ko'rsatkichlar chegarasi **101,3 %** (bolalar tagliklari) – **132,6 %** (qimmatbaho metallardan yasalgan nikoh uzuklari)ni tashkil etdi.

Boshqa bo'limlarda tovar va xizmat narxlari o'zgarishi ta'siri yuqori bo'lmadi yoki yig'ma ko'rsatkichga sezilarli darajada ta'sir qilmadi.

2026-yilning yanvar oyida MIIT – 2018 bo'limlari bo'yicha INI, % da

	Bo'lim nomi	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning yanvariga nisbatan
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	100,8	105,4
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,4	106,0
III.	Kiyimlar va poyabzallar	100,2	102,5
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,2	117,0
V.	Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,4	102,2
VI.	Sog'liqni saqlash	100,5	105,2
VII.	Transport	100,3	112,1
VIII.	Axborot va aloqa	101,1	110,1
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	100,5	105,4
X.	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,1	101,6
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,7	108,4
XII.	Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	140,8	140,0
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	101,1	108,1

II. Hududlar kesimida yig'ma INI

Hududlar kesimida qisqa muddatli va yillik INI bo'yicha o'rtacha respublika ko'rsatkichidan katta farq qayd etilmadi.

2026-yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha INI, % da

Hududlar	2025-yilning dekabriga nisbatan	2025-yilning yanvariga nisbatan
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	100,7	107,5
viloyatlar:		
Andijon	100,7	107,2
Buxoro	100,7	107,5
Jizzax	100,6	106,7
Qashqadaryo	100,7	107,0
Navoiy	100,6	107,0
Namangan	100,7	107,4
Samarqand	100,7	107,2
Surxondaryo	100,6	107,4
Sirdaryo	100,6	107,3
Toshkent	100,7	106,8
Fargʻona	100,7	107,7
Xorazm	100,6	107,5
Toshkent sh.	100,7	107,2

III. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy guruhlardagi INI

2026-yilning yanvar oyida tovarlarga qisqa muddatli INI **100,6 %** (2025-yil yanvar oyida **100,6 %**)ni va yillik nisbatda **105,4 %** (2025-yil yanvarida **104,7 %**)ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI **100,8 %** (2025-yil yanvar oyida **100,8 %**)ni va yillik nisbatda **105,5 %** (2025-yilning yanvarida **102,6 %**)ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha INI **100,4 %** (2025-yil yanvar oyida **100,3 %**)ni, yillik nisbatda **105,2 %** (2025-yilning yanvarida **107,7 %**)ni tashkil etdi.

Xizmatlar bo'yicha oylik ko'rsatkich **100,8 %** (2025-yil yanvar oyida **101,1 %**)ni, yillik nisbatda **113,5 %** (2025-yilning yanvarida **127,0 %**)ni tashkil etdi.


Asosiy guruhlar bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da

O'tgan oyga nisbatan



Asosiy guruhlar bo'yicha INI dinamikasi, o'sish (pasayish) sur'ati % da

O'tgan yilning mos oyiga nisbatan



IV. Yig'ma INI o'zgarishiga MIIT – 2018 bo'limlarining ta'sir tuzilmasi

2026-yilning yanvar oyidagi qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkichga "Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar" yuqori ta'sir ko'rsatib, INI ko'rsatkichini **0,32 f.d.ga** (umumiy o'sishning **47,8 %** i) oshirdi. "Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar", "Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar" bo'limlaridagi narx o'zgarishlari oylik yig'ma ko'rsatkichni jami hisobda **0,18 f.d.ga** oshirdi. Qolgan bo'limlarida narxlarning oshishi yig'ma ko'rsatkichni yana **0,17 f.d.ga** oshirdi.

MIIT – 2018 bo'limlarining 2026-yil yanvar oyida yiq'ima INI o'zgarishiga ta'siri, f.d.

o'tqan oyga nisbatan

№	Xizmat turi	Ulushi, %
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	0,32
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	0,00
III.	Kiyimlar va poyabzallar	0,02
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	0,02
V.	Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	0,02
VI.	Sog'liqni saqlash	0,03
VII.	Transport	0,03
VIII.	Axborot va aloqa	0,03
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	0,01
X.	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	0,00
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	0,01
XII.	Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	0,12
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	0,06

Jami ta'siri

+0,67 f.d.

2026-yil yanvar oyida yillik yigʻma INI oʻsishiga “Oziq-ovqat va spirtsiz ichimliklar”, “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilgʻi turlari” boʻlimlaridagi narxlar va tariflardagi oʻzgarishlar eng katta hissa qoʻshdi. Ushbu boʻlimlarning umumiy hissasi **4,05 f.d.**ga yetdi (umumiy oʻsishning yarmidan ortiq). Boshqa boʻlimlarning taʼsiri ancha kam boʻldi.

V. Geometrik Yang formulasi bo'yicha INI (tahliliy maqsadlar uchun)

2026-yil yanvar oyidan boshlab Milliy statistika qo'mitasi geometrik Yang formulasi asosida qo'shimcha INIni shakllantiradi. **Mazkur indeks faqat tahliliy maqsadlarda qo'llaniladi va yuqorida e'lon qilingan asosiy INIning o'rnini bosmaydi yoki unga muqobil hisoblanmaydi** (batafsil ma'lumot "Uslubiy tushuntirishlar" bo'limining VI bandida keltirilgan).

2026-yil yanvar oyida geometrik Yang formulasi bo'yicha oylik INI **100,6** %ni tashkil etdi.

Quyida O'zR MIIT-2018 bo'limlari kesimida geometrik Yang formulasi bo'yicha INI keltirilgan.

2026-yil yanvar oyi uchun geometrik Yang formulasi bo'yicha INI, %da (TAHLILIY MAQSADLAR UCHUN)

	Bo'lim nomi	2025-yilning dekabriga nisbatan
I.	Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	100,8
II.	Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari	100,3
III.	Kiyimlar va poyabzallar	100,1
IV.	Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	100,2
V.	Uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	100,4
VI.	Sog'liqni saqlash	100,5
VII.	Transport	100,3
VIII.	Axborot va aloqa	101,1
IX.	Dam olish, sport va madaniyat	100,5
X.	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,1
XI.	Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	100,7
XII.	Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	121,3
XIII.	Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar	101,0

VI. Uslubiy ma'lumotlar

2026-yil yanvar oyidan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi xalqaro standartlar va tavsiyalar hamda XVJning ekspert ko'magini hisobga olgan holda tayyorlangan iste'mol narxlari indeksleri (INI)ni hisoblashning yangilangan metodologiyasini joriy etdi.

2026-yil yanvar oyidan kuchga kiradigan asosiy metodologik o'zgarishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Ma'lumotlar manbalarini kengaytirish.** Yangilangan metodologiya iste'mol sektorida narxlarni monitoring qilish uchun quyidagi usul va manbalardan foydalanishni nazarda tutadi:

(1) CAPI¹ texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar (chakana savdo do'konlariga tashrif buyurib narxlarni ro'yxatdan o'tkazish);

(2) ma'muriy tranzaksion ma'lumotlar (soliq organlari ma'lumotlar bazasidan onlayn-kassa mashinalari chek ma'lumotlari);

(3) eStat² tizimi orqali xizmat ko'rsatuvchi provayderlardan va chakana sotuvchilardan

olingan ma'lumotlar (API³ /Excel formatida);

(4) web scraping⁴ texnologiyasiga asoslangan va turli xil onlayn manbalar (vab-sayt ma'lumotlari) dan olingan narxlar;

(5) CATI⁵ texnologiyasiga asoslangan ma'lumotlar (telefon orqali so'rovnomalar).

Metodologiya shuningdek, turli xil yig'ish chastotalariga ega manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish tartibini ham o'z ichiga oladi (ikki bosqichli geometrik o'rtacha hisoblash: birinchi bosqichda ma'lumotlar manba bo'yicha, ikkinchi bosqichda esa umumiy pozitsiya bo'yicha o'rtacha hisoblanadi).

2. **Iste'mol narxlari ma'lumotlarini to'plash muddatini** avval qo'llanilgan **11 kunlik** davrdan **25 kunlik** davrga (oyning **1-kunidan 25-kuniga** qadar) uzaytirildi, bu oy davomidagi narxlar o'zgarishini to'liq qamrab olish imkonini beradi.

Har bir ma'lumot manbasi uchun o'ziga xos narxlarni yig'ish jadvali mavjud.

Xususan:

- onlayn-kassa mashinalari chek ma'lumotlari har oyning **dastlabki 25 kuni** davomida qayd etiladi;

- registratorlar tomonidan CAPI texnologiyasi asosida narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash quyidagicha amalga oshiriladi: oyning **1-kunidan 7-kunigacha** xizmatlar sohasi bo'yicha, **8-kunidan 14-kunigacha** nooziq-ovqat tovarlari va **15-kunidan 25-kunigacha** oziq-ovqat tovarlari kuzatiladi. Agar ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar (masalan, kommunal xizmatlar, ta'lim sohasidagi xizmatlar) narxlarining o'zgarishi xizmatlar uchun narxlarni yig'ishning ko'rsatilgan davri tugaganidan so'ng (7-sanadan keyin) sodir bo'lsa, tegishli tasdiqlovchi hujjatlar e'lon qilingan paytda qo'shimcha ro'yxatdan o'tkazish amalga oshiriladi;

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan **30 turdagi**⁶ tovar va xizmatlar (masalan, benzin, un, 1-navli undan tayyorlangan non, guruch, o'simlik yog'i, go'sht, tuxum va boshqalar) narxlari CAPI texnologiyasi usulida **har hafta** qayd etilib, oylik INIn baholash uchun qo'llaniladi;

- **web scraping** texnologiyasi bo'yicha ma'lumotlar narxlarning o'zgarish chastotasi hamda muntazam ravishda to'plashning texnik imkoniyatlariga qarab alohida jadval asosida yig'iladi;

- qolgan manbalar bo'yicha narxlar ro'yxatdan o'tkazishlar o'rtasidagi interval bir kalendar oy bo'lishini ta'minlagan holda bir oyda bir marta qayd etiladi.

3. **Iste'mol narxlarini kuzatish uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlar ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritildi.** Tovar va xizmatlar to'plamini qayta ko'rib chiqish, INIn hisoblashda uy xo'jaliklarining haqiqiy iste'mol xarajatlari tuzilmasini aks ettirishga imkon beradi.

2026-yil yanvar oyidan boshlab oylik INI **517 ta** (2025-yilda **510 ta**) tovar va xizmatlarga asoslangan holda amalga oshiriladigan bo'ldi.

2025-yilgi iste'mol bozori va iste'mol xarajatlari tarkibini tahlil qilish asosida to'plamga o'zgartirishlar kiritildi.

Xususan, ayrim xizmatlardan foydalanishning kengayishini hisobga olgan holda, nodavlat maktablarda ta'lim olish, striming xizmatlari, avtomobil ijarasi, aloqa va axborot sohasidagi boshqa xizmatlar (messenjerlar va sun'iy intellekt xizmatlari uchun pullik obunalar), elektr samokatlar ijarasi, elektromobillar uchun elektr energiyasidan foydalanish kabi pozitsiyalar qo'shildi.

Bundan tashqari, ro'yxatga ilgari qamrab olinmagan quyidagi pozitsiyalar: ishlatilgan avtomobillarni sotib olish, akvapark xizmatlari, qum, xurmo, krem va poyabzal tozalash uchun boshqa vositalar, asosiy davlat xizmatlari uchun to'lovlar, idish yuvish vositalari, yog'och yoqilg'isi (o'tin va g'o'zapoya), avtomobil va motosikl g'iloflari, fotografiya, musiqa, raqs va san'at ta'limi xizmatlari, dezinfektsiyalovchi vositalar, mebel, uy-ro'zg'or buyumlari va tukli gilamlar ijarasi (to'y

va turli tadbirlarni o'tkazish uchun) ro'yxatga kiritildi.

Narx o'zgarishlarini aniqroq aks ettirish maqsadida benzin (AI-92, AI-95, AI-98 va AI-100 markalari bo'yicha) va toshko'mir (narx turlariga ko'ra: tartibga solinadigan va bozor narxlari asosida) kabi pozitsiyalar ajratib ko'rsatildi.

Shuningdek, avval kuzatilgan, haydovchilarni tayyorlash bilan bog'liq xizmatlar ro'yxati yakka holda avtomobil boshqarish darslari, haydovchilik bo'yicha imtihon topshirish hamda haydovchilik guvohnomasini olish xizmatlarini kiritish hisobiga kengaytirildi.

Umuman olganda, 2026-yildan boshlab tovar va xizmatlarning **23 ta pozitsiyasi qo'shildi**.

Shu bilan birga, dolzarbligini yo'qotgan va vakillik mezoniga mos kelmaydigan (aholi tomonidan ularni sotib olish xarajatlari ulushi 0,01 foizdan kam bo'lgan) **16 ta tovar va xizmat pozitsiyalari chiqarib tashlandi**. Ular orasida quyidagilar bor: kulchalar, cho'chqa go'shti va cho'chqa yog'i, lavr yaprog'i va kashnich urug'i, ayollar po'stinlari va yarim po'stinlari, ayollar mo'ynali qalpoqlari, to'qish uchun ip, ignalar, to'g'nag'ichlar va shunga o'xshash mahsulotlar, tibbiy niqoblar va qo'lqoplar, statsionar telefonlar, oylik jurnallar, erkaklar, ayollar va bolalar ichki kiyimlari to'plamlari (ro'yxatda tegishli alohida pozitsiyalar – maykalar va trusiklar mavjudligini hisobga olgan holda), shuningdek, maishiy texnika ijarasi.

4. 2026-yil yanvaridan boshlab narx **indekslarini hisoblash formulasiga o'zgartirish kiritildi**. Ilgari qo'llanilgan Laspeyres (Lou) modifikatsiyalangan formulasi o'rniga, arifmetik Yang modifikatsiyalangan formulasi bo'yicha hisoblash joriy etildi. Ushbu formuladan foydalanish XVJ ekspertlari tomonidan qisqa muddatli istiqbolda tavsiya etilgan va "Iste'mol narxlari indeksleri bo'yicha qo'llanma: tushunchalar va usullar"da bayon qilingan (XVJ, XMT, Yevrostat, BMT YEIK, IHTT va JB, 2020). Modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasi qo'llanilishi aholining iste'mol xarajatlari bo'yicha ma'lumotlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkonini beradi va oldingi yil narxlari asosida vaznlarni yangilash uchun qo'shimcha koeffitsiyent qo'llashni talab etmaydi.

5. Tahliliy maqsadlar va respublikadagi inflyatsion jarayonlarni kompleks baholash uchun 2026-yil yanvardan boshlab **geometrik Yang formulasining muqobil variantidan foydalanib, qo'shimcha narx indeksini shakllantirish boshlandi**. Ushbu hisob-kitoblar natijalari doimo "Tahliliy maqsadlar uchun" degan belgi bilan e'lon qilib boriladi.

Modifikatsiyalangan arifmetik Yang formulasi asosida shakllangan INI iste'mol sektoridagi inflyatsiyaning asosiy ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Geometrik Yang formulasi bo'yicha hisoblangan INI esa tahlil maqsadlari uchun qo'shimcha ko'rsatkich sifatida qo'llaniladi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi mutaxassislari tomonidan o'rta muddatli istiqbolda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasiga geometrik Yang formulasini joriy etish tavsiya etilgan.

6. **Ma'lumotlarni e'lon qilish muddatlari o'zgartirildi**. 2026-yildan boshlab INI bo'yicha ma'lumotlar (press-reliz va jadvallar ko'rinishida, rasmiy veb-sayt stat.uz hamda "Statistika" integratsiyalashgan axborot tizimi siat.stat.uz orqali) hisobot oyidan keyingi oyning 5-kuni e'lon qilinadi. Bu narxlar bo'yicha ma'lumot to'plash muddatining uzaytirilishi va narx kuzatuvlari qamrovining kengayishi natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha yuklama bilan bog'liq. Umumiy ma'lumotlarni tarqatishning takomillashtirilgan tizimi (Enhanced General Data Dissemination System – e-GDDS⁷) ishtirokchilari va foydalanuvchilari uchun qo'llanmaning 2.7-bandiga muvofiq, ishtirokchi davlatlarga INI hisobot oyidan keyingi ikki oy ichida har oylik asosda e'lon qilish tavsiya etiladi. Mamlakatimiz e-GDDS ishtirokchisi sifatida ma'lumotlarni e'lon qilish muddatlarini belgilashda ushbu tavsiyani inobatga oladi.

Barcha yangiliklar mamlakatimizdagi narxlar statistikasi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi xalqaro ekspertlar



bilan yaqin hamkorlikda narxlar statistikasi ko'rsatkichlari metodologiyasini takomillashtirish ishlarini davom ettiradi. Yakuniy maqsad – rasmiy ma'lumotlar sifati va ishonchliligini oshirish.

VII. Foydali havolalar

[Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari \(tariflari\) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi Maqsadlar bo'yicha individual iste'mol tasniflagichi \(O'R MIIT – 2018\)](#)

[Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: konsepsiya va uslubiyat \(2020\)](#)

Chop etish uchun mas'ul:
Narxlar statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent, Mustaqillik
shoh ko'chasi, 63

Kontaktlar: info@stat.uz

Tel: +99871 203-80-00 (1100, 1101)



¹ CAPI (Computer Assisted Personal Interviewing) – narxlar statistikasida bu ma'lumot to'plash usuli bo'lib, unda registratorlar savdo va xizmat ko'rsatish ob'ektlariga bevosita borib, narxlarni qog'oz anketa o'rniga planshet orqali qayd etadilar.

² O'zbekistonda statistik hisobotlarni elektron shaklda yig'ishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

³ API (Application Programming Interface) – bu turli dasturlar o'zaro muloqot qilishi va ma'lumot almashishiga imkon beruvchi dasturiy interfeys, qoidalar, buyruqlar va vositalar majmuasidir.

⁴ Veb-resurs sahifalaridan ma'lumotlarni avtomatik ravishda qirib olish texnologiyasi.

⁵ CATI (Computer Assisted Telephone Interviewing) – bu kompyuter yordamida telefon orqali intervyu o'tkazishga asoslangan ma'lumot to'plash usuli.

⁶ To'liq ro'yxat iste'mol narxlari indekslarini shakllantirish bo'yicha Uslubiy qoidalar ilovasida keltirilgan.

⁷ https://dsbb.imf.org/content/pdfs/eGDDS_Guide_for_Participants_and_Users.pdf («The e-GDDS encourages participants to disseminate consumer price indices on a monthly basis within two months after the reference month»).